

O'ZBEK TARIXCHLIK MAKTABLARINING TARIXIY AHAMIYATI HAMDA O'RNI...

*Oriental universiteti 70220301-
Tarix ixtisosligi II kurs Magistri
Jalilov Asqar Yo'ldosh o'g'li*

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrda O'zbekiston SSR da ilm-fanning tarix fani va tarixshunoslik sohasida tarixchilik mакtablarining vujudga kelishi hamda rivojlanishi jarayoni hamda uning ahamiyati, shuningdek, ushbu ilmiy maktablarda ilmiy faoliyat yuritgan o'zbek milliy tarixshunosligimizning ulug' vakillari, ma'rifatparvar olimlari o'zbek milliy tarixshunosligi sohasi rivojiga o'zining benazir hissasini qo'shgan ulkan tarixshunos hamda qadimshunos (Arxeolog) olimlarimizning, o'zbek milliy tarixchlik maktablарining muhim jihatlarni hamda olimlarimiz ilmiy pedagogik faoliyatlarining o'ziga xos muhim qirralarini hamda bu olimlarimizning o'zbek tarixshunoslik sohasidagi erkin va mustaqil fikr-mushohadalarining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib o'tamiz...

Kalit so'zi: XX asrda O'zbekiston SSR da ilm-fanning rivojlanishi hamda shakllanishi jarayoni. XX asr o'zbek milliy tarixchiligi mакtabi shakllanishi hamda uning ilm-fan rivojlanishidagi ahamiyati va o'rni. O'zbek milliy tarixchilik maktablарining ahamiyati va mohiyati.

THE HISTORICAL SIGNIFICANCE AND ROLE OF UZBEK SCHOOLS OF HISTORY...

*Oriental University 70220301-
Second year Master's student in History
Jalilov Askar Yuldashev son*

Annotation: In this article, we will examine the process of the emergence and development of schools of history in the field of history and historiography in the Uzbek SSR in the 20th century and its significance, as well as the great representatives of our Uzbek national historiography, enlightened scientists who worked in these scientific schools, the important aspects of our great historians and antiquarians (archaeologists) who made a unique contribution to the development of the field of Uzbek national historiography, the important aspects of the Uzbek national historiography schools, the specific important aspects of the scientific pedagogical activities of our scientists, and the specific features of the free and independent opinions and observations of these scientists in the field of Uzbek historiography...

Key word: XX The process of development and formation of science in the Uzbek SSR in the 20th century. The formation of the Uzbek school of national historiography in the 20th century and its significance and role in the development of science. The significance and essence of the Uzbek schools of national historiography.

ИСТОРИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ И РОЛЬ УЗБЕКСКИХ ИСТОРИЧЕСКИХ ШКОЛ...

Восточный университет 70220301-

Второй год Магистр истории

Джалилов Аскар Юлдашов

Аннотация: В данной статье мы рассмотрим процесс возникновения и развития исторических школ в области истории и историографии в Узбекской ССР в XX веке, его значение, а также великих представителей нашей узбекской национальной историографии, просвещенных ученых, работавших в этих научных школах, великих историков и археологов (археологов), внесших уникальный вклад в развитие области узбекской национальной историографии, важные стороны узбекских национальных историографических школ, специфические важные стороны научно-педагогической деятельности наших ученых, а также специфические черты свободных и независимых взглядов и наблюдений этих ученых в области узбекской историографии...

Ключевое слово: Процесс развития и становления науки в Узбекской ССР в XX веке. Формирование узбекской школы национальной историографии в XX веке и ее значение и роль в развитии науки. Значение и сущность узбекских национальных историографических школ.

KIRISH QISM...

XX asrning birinchi yarmilarida (20-30-yillarida) Turkistonda (O'zbekiston SSR da) tarixshunoslik sohasi hamda tarixchilik maktablari vujudga kela boshlagan davrlar edi hamda bu davrlarda madaniy va ma'naviy hayotda biroz bo'lsa-da, jonlanish yuz bera boshlagan edi... Bu ijobiy voqeа-hodisa sifatida Turkistonda (O'zbekiston SSR da) ilm-fanning ma'lum bir sohalarida, ya'ni ixtisosliklarida bir qancha maktablarning tashkil topishi jarayoni bilan bog'liqdir... Mana shunday muhim tarixiy hodisa sifatida Ijtimoiy-gumanitar fanlardan tarix fani hamda tarixshunoslik sohasida tarixchlik maktablarining ham shakllanishi jarayoni yuz bergen edi... O'zbekiston SSR da Ijtimoiy-gumanitar fanlari bilimdoni, o'zbek tarixchilik maktabi asoschisi tarixchi olim Po'lat Majidovich Soliyevning ilmiy faoliyati natijasida o'zbek milliy tarixchilik maktabining tamal toshini quygan edi desak aslo mubolag'a qilmagan bo'lamiz...

Shuningdek, tarix fani hamda tarixshunoslik sohasida ilmiy maktablarning shakllanishi muhim tarixiy voqeа-hodisalar sanaladi. Chunki buning asnosida O'zbekiston SSR da sobiq sho'rolarning mustabid tuzumi asoratidagi mustamlaka sharoitda ham ilm-fan sohalari butkul to'xtab qolmasdan, balki ozgina bo'lsa ham, rivojlanganligini, keyingi davr uchun asos bo'lib, xizmat qilganligini,. mustamlaka sharoitida O'zbekiston SSR da tarix fanidek muhim bir Ijtimoiy-gumanitar fanning shakllanishining o'zi ham katta bir voqeа-hodisa ekanligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi...

ASOSIY QISM...

Bundan tashqari, O'zbekiston SSR da tarix fani va tarixshunoslik sohasi XX asrning 40-50-yillariga kelib, to'liq holda sovetcha mutaassiblikni, shuningdek, sovetcha mafkurani o'zida singdirganligini (Albatta, bu salbiy holat mustabid sovet hukumati tazyiqlari hamda tuzumining kuchi bilan o'rnatilgandi...) hisobga oladigan bo'lsak, avvallo, bunda ilm-fan sohalari, asosan, Ijtimoiy-gumanitar fanlarga qaratilgan siyosiyashtirish jarayoni sharoitda ham tarixchilik maktablari shakllanishdan, rivojlanishdan to'xtab qolmagan edi hamda O'zbekiston SSR da ham tarix fani hamda tarixshunoslik sohasi ilm-fan sohalari ichida mustaqil holda tarkib topishi, XX asrning o'rtalarida (40-50-yillarida) mustabid sobiq sovet hukumati ta'sirida ham bu ilm-fan sohasining zamon bilan hamnafas holda shakllanishini qisman bo'lsa-da, ko'rishimiz mumkin bo'ladi... Bunga misol tariqasida XX asrning 50-60-yillarida o'zbek tarixshunos va qadimshunos olimlarimiz, mutaxassislarimiz tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlari, tadqiqotichlik faoliyatları orqali O'zbekiston SSR da tarix fani va tarixshunoslik sohasi yangidan yangi ilmiy manbalar, ilmiy tadqiqotichlik na'munalari boyib borganligini, shuningdek, buning natijasida esa yurtimizda tarixchilik maktablarining bu ijobiy jarayonga asosiy vosita bo'lganligini alohida ta'kidlab o'tganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi... Bunda, birinchidan, birinchi o'zbek tarixshunos olimi hamda tarixchilik maktabi tashkilotchisi Po'lat Majidovich Soliyevdan so'nggi avlod vakillari bo'lgan o'zbek tarixshunos va qadimshunos olimlari tomonidan XX asrning o'rtalarida (50-60-yillarida) judayam ko'plab ilmiy tadqiqotichlik na'munalari yaratilib, hali O'zbekiston SSR tarixida bo'limgan jarayon - eng qadimgi davrlarga doir tarixiy qadamjolarni izlab topish, ularning yoshini aniqlash, insoniyatning ilk izlari na'munalari O'rta Osiyo (O'zbekiston) hududlarida ham mavjud bo'lganligi yoki bo'limganligini ilmiy jihatdan tadqiq etish, ilmiy qazishma ishlarini olib borish, hali O'zbekiston SSR tarix fani hamda tarixshunoslik sohasiga noma'lum bo'lgan tarixiy manbalarni izlab topib, ilmiy jihatdan asoslab ommaga tanishtirish kabi faoliyatları, ikkinchidan, XX asrning 50-60-yillariga kelib, o'zbek milliy tarixshunoslik sohasida ilmiy faoliyatlarini boshlagan Toshkent tarixchilik maktabi tashkilotchilaridan olim Hamid Ziyoyev va olim Abdulahad Rahimjonovich Muhammadjonovning shu yillarda olib borgan ilmiy tadqiqotichlik faoliyatları orqali

hali O'zbekiston tarixi faniga noma'lum bo'lgan ko'pgina tarixiy manbalar orqali, ilmiy faktlari orqali bu ilm-fan sohasining rivojlanishiga o'zlarining benazir hissalarini qo'shganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi, uchinchidan, XX asrning 50-60-yillarida olib borilgan Toshkent tarixchilik maktabi tashkilotchisi Hamid Ziyoyevning ilmiy faoliyati natijasida O'zbekiston tarixi fani hamda tarixshunoslik sohasiga o'zbek davlatchiligi tarixining eng qadimgi davrlarga borib taqalishini kamida 2700 yillik tarixga ega ekanligi haqdagi ilmiy faktlarini, shuningdek, olimning Sibirbo'yи va Volgabo'yidagi, shuningdek, Sharqiy Turkiston hududlarida olib borgan ilmiy tadqiqotichlik ishlari orqali o'zbek millatiga mansub ajdodlarimizning Volgabo'yлari va Sibirbo'yidagi hududlarida istiqomat qilishganligi haqidagi ilmiy faktlarini ko'rishimiz mumkin bo'ladi... To'rtinchidan, XX asrning 30-40 yillarida Toshkent shahri davlatimiz poytaxti sifatida Samarqand shahridan ko'chirilgandan so'ngroq bu azim va qadimi shaharda adabiyot, ilm-fan, san'at sohalari anchagina bo'lsa-da, rivojlangan edi, bunga sabab sifatida O'zbekiston SSR dagi ko'plab hududlaridan (viloyatlardan) ilmli va ziyoli qatlamning azim poytaxtga to'planishi hamda ilmiy yoki bo'lsam, ijodiy faoliyatilarini shakllantirganligi hamda rivojlantirganligi bo'lgan edi... Shu sababli ham XX asrning 30-40 yillarida ham (Xattoki, ikkinchi jahon urushi sharoitida ham...) O'zbekiston SSR da ilm-fanning Ijtimoiy-gumanitar sohalaridan tarix fani hamda tarixshunoslik sohasi birmuncha darajada taraqqiy etgan edi desak aslo mubolag'a qilmagan bo'lamiz... Bunga misol tariqasida o'zbek xalqining birinchi qadimshunos (arxeolog) olimi Yahyo G'ulomovning ilk ilmiy tadqiqotichlik faoliyati aynan mana shu XX asrning 30-40-yillariga to'g'ri kelganligini, aynan shu vaqtarda bu ilm-fan darg'asining O'rta Osiyo (O'zbekiston) hududlarida eng qadimgi odamlar yashab o'tgan manzilgohlarini ilmiy jihatdan qazishma ishlari davomida topib (Albatta, bunda bu qadmshnos olimning ilk ilmiy faoliyatiga rus arxeolog olimi Aleksey Tolstov boshchilik qilganligini, buning boisi sifatida mustabid sovet hukumatining kommunistik-sotsialistik mafkurasingin siyosati sifatida baholasak, aslo xato qilmagan bo'lamiz...),¹ ularning yoshini, qaysi davrlarga tog'ri kelishligini, shuningdek, ularni tarix fani va tarixshunoslik sohasi uchun qanchalik darajada ahamiyatli ekanligini ko'satib o'tishi, ilmiy jihatdan asoslab bergenligini o'zi poytaxtimiz Toshkent shahrida tarixchilik maktablarining anchagina rivojlanganligiga amin bo'lamiz.... Beshinchidan esa, O'zbekiston SSR da tarix fani va tarixshunoslik sohasi sobiq ittifoq davrida o'ta darajada siyosiyashtirilishi hamda marksistik-leninistik go'ya-yu mafkuralashitirilishi oqibatida judayam salbiy holatlarni boshidan kechirishga majbur bo'lgan edi... Mustabid sho'rolar hukumati Turkistonda (O'zbekistonda) ilm-fanning ko'plab sohalarini o'zlarining senzuraviy nazorati ostiga olgan bo'lib, bunda mahalliy haduddan yetishib chiqqan biror bir ilm-fan egasini erkin va mustaqil holda qo'yib qo'yaganligi

¹ Ahmedov B., G'ulomov X. Ozodlik ilhom. "Milliy tiklanish" gazetasi. 1997-yil 4-mart.

hamda har bir olim va mutaxassislarga ilm-fanga faqat va faqat sovetcha mutaassiblik va sovetcha mafkura orqali (kommunistik-sotsialistik mafkurasi nuqtayi nazardan yondashishni...) talab qilingani sababli ham XX asrning 50-60-yillarida O'zbekiston SSR da ilm-fanning ba'zi sohalari biryoqlama shakllanganligini, shuningdek, O'zbekiston SSR dan yetishib chiqqan mutahassislarga, albatta, markazdan (Kremlidan) bir "ilmiy" rahbar boshliq qilib qo'yilar hamda uning to'liq nzaoratiga o'tkazilar edi... Chunki sobiq sho'rolar davrida SSSR tarkibidagi qaram respublikalardan turkiy xalqlar yashaydigan O'zbekiston SSR, Qozog'iston SSR, Qirg'iziston SSR kabi mustamlaka o'lkalari aholisiga nisbatan adabiyot, ilm-fan, san'atga mustaqil erkin turib, munosabatda bo'lishligiga aslo yo'l qo'yilmas edi... (Masalan, XIX asrning oxirlarida buyuk o'zbek shoiri Furqat doimo ravishda Podsho Rossiyasining O'rta Osiyodagi maorif va ma'naviyati nazoratchisi Nikolay Ostroumov nazoratida bo'lganligini yoki bo'lmasam, XX asrning birinchi yarimlarida ilmiy faoliyat yuritgan o'zbek milliy tarixchilik maktabi asoschisi Po'lat Majidovich Soliyev doimo sobiq sho'rolar nazoratida bo'lganligini misol tariqasida keltirib o'tasak bo'ladi...). Oltinchidan esa, XX asrning birinchi yarmilarida (20-30 yillarida) O'zbekiston SSR da birinchilardan bo'lib, tarix fani hamda tarixshunoslik sohasiga qo'l urgan o'zbek ziyolilaridan biri olim Po'lat Majidovich Soliyev faoliyatida asnossida o'zbek milliy tarixchilik maktabiga asos solinishining eng muhim ahamiyati shundaki, bu davrga kelib, mustabid sovet hukumatining mustamlakachilik nazoratiga hamda qattiq senzuraviy taziyqlariga qaramasdan, O'zbekiston SSR da madaniy va ma'rifiy hayot qisman bo'lsa-da, rivojlanganligi, butunlay to'xtab qolmaganligi, lekin O'zbekiston SSR da XX asrning 30-40-yillarida kelib, ilm-fan sohasining ijtimoiy-siyosiy va Ijtimoiy-gumanitar fanlarning deyarli barchasida bir xususiyat - sovetcha mutaassiblikni targ'ib qilish hamda sovetcha kommunistik-sotsialistik mafkurasini tiqishtirish jarayonida holida kechganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi... Yettinchidan esa, O'zbekiston SSR da tarixchilik maktablarining yuzaga kelishi natijasida eng muhim xususiyat - tarix fani va tarixshunoslik sohasida yirik-yirik ilmiy izlanishlarining, ilmiy tadqiqotichlik na'munalarining yaratilganligi (Garchi bu ilmiy tadqiqotichlik na'munalari sovetcha mafkura ta'srida bo'lsa ham...) hamda ushbu ilmiy tadqiqotichlik ishlari mualliflari bo'lgan ilg'or tarixshunos va qadimshunos olimlarimizning, mutahassislarimizning yetishib chiqqanligi hisoblanadi... XX asrning birinchi yarmilaridan to XX asrning 50-60-yillarigacha vaqt mobaynida Ijtimoiy-gumanitar fan soha vakillaridan tarixshunos va qadimshunos (arxeolog) olimlarimizdan Po'lat Majidovich Soliyev, akademik Yahyo G'ulomov, olim Hamid Ziyoyev, olim Abdulahad Rahimjonovich Muhammadjonov, olim Abdujabbor Kabirov, olim Ahmadali Asqarov, olim M. Sodiqov, olim Goga Abrorovich Xudayatov, olim Bo'riboy Ahmedov va boshqa ko'plab olimlarimizning sa'yi-harakatlari natijasi bilan butun XX asr o'zbek milliy tarix fani hamda tarixshunoslik sohasida ko'plab ilmiy maktablarining (tarixchilik

maktablarining) shakllanishi hamda rivojlanishiga o'zlarining benazir hissalarini qo'shgan ilm-fan fidoiyilari hisoblanishishadi....² Xulosa o'rnila shuni aytmog'imiz kerakki, O'zbekiston SSR da XX asrning birinchi yarmilarida vujudga kelgan tarixchilik maktablarining katta ahamiyati shundaki, yurtimizda tarix fani va tarixshunoslik sohasida ma'lum darajada bo'lsa-da, bu ilm-fan sohalarining taraqqiy etganligini, shuningdek, bu ilm-fan sohasi namoyondalarining ulkan avlodining vujudga kelishligiga hamda ularning yirik-yirik ilmiy izlanishlari hamda ilmiy tadqiqotichlik na'munalari sabab to biz yashayotgan vaqtga qadar bo'lgan davrgacha yetib kelishganligini hamda bu avlod vakillarining ilmiy tadqiqotichlik ishlaridan bugungi kunimizdagi tarix fani va tarixshunoslik sohasi vakillari tomonidan foydalanishi uchun beminnat xizmat qilganligi bilan ham yuksak darajada baholanadi.... XX asrda O'zbekiston SSR da tarix fani va tarixshunoslik sohasi rivojida tarixchilik maktabilarining alohida o'rni bo'lib, bunda O'zbekiston SSR da tarix ilmi bilan shug'ullanadigan tarixshunos olim-u mutaxassislarning ilmiy qarashlari, ularning ilmiy tadqiqotichlik faoliyatida yangilanish davr bosqichiga kirganligi, shuningdek, mustabid sovet hukumatining qattiq senzuraviy taziyqlariga qaramasdan, sovetcha g'oya va mafkurlarni tiqishtirilishiga qaramasdan zamon talabiga javob bera oladigan ilmiy izlanishlari va ilmiy tadqiqotichlik na'munalari yaratilgan edi... Shu o'rinda XX asrning 40-50-yillari hamda 50-60-yillarida ilmiy faoliyat yuritgan o'zbek tarixshunos olimlaridan Yahyo G'ulomovning ilk marotaba o'zbek tarixshunos va qadimshunos olimlaridan birichilardan bo'lib, O'zbekiston SSR hududlarida eng qadimiy odamlar yashab o'tgan qadim o'tmisht manzilgohlarni izlab topishdagi jonbozligi (Rus olimi A. Tolstov rahbarligida), O'zbekiston SSR tarixshunoslik sohasida qadimshunoslik (arxeologiya) yo'nalishining tashkil topishidagi navotorligi (yangilikka intiluvchanligi) kabi ilmiy faoliyatlar natijasida O'zbekiston SSR dagi ilm-fanning Ijtimoiy-gumanitar fanlaridan tarix fani va tarixshunoslik sohasida yangi bir davr boshlanganligidan dalolat edi desak aslo mubolag'a qilmagan bo'lamiz.... Buning natijasida O'zbekiston SSR hududlarida bundan 100-40 ming yilliklarda yashagan odamlarning (Neandertal, fergantrop, kromonyon odamlarining) suyak qoldiqlarining topilishi, tadqiq etilishi hamda ularning yashagan qadimiy manzilgohlarining topib o'rganilishi, eng qadimgi odamlarning o'ziga xos xususiyatlarini ilm-fanga olib kirilshi jarayonlari bilan aytadigan bo'lsak, O'zbekiston SSR da tarix fani va tarixshunoslik sohasida alohida ilmiy maktablarning vujudga kelishiga hamda asta-sekinlik bilan bo'lsa-da rivojlanishiga zamin hozrilgan edi... Xulosa o'rnila shuni aytmog'imiz lozimki, XX asr o'zbek ilm-fanining tarix ilmi va tarixshunoslik sohasi rivoji bosqichida tarixchilik maktablarining alohida o'z o'rni hamda ahamiyatli tomoni shundaki, bunda shu ilm-fan yo'nalishida yangi bir avlod vakillarining shakllanganligi hamda ularning aynan sa'y-

² 2. Hasanov M., Usmonov I. Istiqlol kashf etgan haqiqat. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi. 1998-yil 3-iyul.

harakatlari natijasi o'laroq o'zbek milliy tarix fani va tarixshunoslik sohasi mustabid sovet hukumatining qattiq senzuraviy taziyqlariga qaramasdan zamon bilan astasekinlik bilan bo'lsa-da hamnafas holda sof ilmiy qarashlar bilan boyib borib, shakllanganligida edi...

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ahmedov B., G'ulomov X. Ozodlik ilhom. "Milliy tiklanish" gazetasi. 1997-yil 4-mart.
2. Hasanov M., Usmonov I. Istiqlol kashf etgan haqiqat. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi. 1998-yil 3-iyul.
3. Qudrat Do'stmuhammad. Ikki asr hikoyasi. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi. 1999-yil 13-fevral.
4. Mamadaliyev A. Milliy yuksalish. "Respublika" gazetasi. 1999-yil 21-may.
5. Ahmadjonov F. Mustaqillik va taraqqiyot tarannumi. "O'zbekiston ovozi" gazetasi. 2000-yil 12-oktyabr.
6. Mirhodiye T. Bir hovuch dur. "Mulkdor" gazetasi. 2002-yil 5-aprel.
7. Abdurahmonov M. Mustaqillik va ozodlik qarashlari. "Fidokor" gazetasi. 2002-yil 21-may.

Internet saytlari:

1. www.Ziyonet.uz
2. www.google.uz
3. www.til va adabiyot ta'limi.uz
4. www.Scoups
5. [Https//uz.wikipedia](https://uz.wikipedia)
6. [Https//ziyouz.com](https://ziyouz.com)
7. [Https//www.tarix.uz](https://www.tarix.uz)
8. [Https//ru.wikipedia.org](https://ru.wikipedia.org)
9. [Https//jadid.uz](https://jadid.uz)
10. [Https//www.Supportscience.com](https://www.Supportscience.com)